

O‘ZARO MANFAATLI AMALIY HAMKORLIK YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o‘rinbosari Marat Xusnullin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Hukumati Raisi Mixail Mishustinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Rossiya yetakchisining o‘tgan yil may oyidagi O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida o‘zaro manfaatli amaliy hamkorlikni, shu jumladan, qurilish tarmog‘ida va hududlarni rivojlantirish sohasida kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Qurilish sohasida keng ko‘lamli kooperatsiyani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Ikki mamlakat tashkilotlari va kompaniyalari ishtirokida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish va qurish, qurilish materiallari va uskunalar yetkazib berish shunday loyihalar jumlasidan.

Ulushli qurilish, loyihalashtirish, ekspertiza, raqamlashtirish va davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha tajriba almashishni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘ZA

IJTIMOIIY SOHALARDA DAVLAT-XUSUSIIY SHERIKLIK LOYIHALARI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-fevral kuni ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samarali tashkil qilishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Iqtisodiyotda davlat ulushini keskin qisqartirish bo‘yicha mamlakatimizda katta islohotlar olib borilmoqda. 2019-yilda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilangani bunga keng yo‘l ochdi.

Bunday sheriklik ijtimoiy sohalarida yaxshi natijalar beryapti. Masalan, 1 million 200 ming o‘rinli xususiy bog‘chalar ochilgani tufayli qamrov darajasi 77 foizga chiqdi. Oliy ta’lim tizimida 57 ta loyiha samarasida 29 ming talaba yotoqxona bilan ta’minlandi. Tibbiyotda otolaringologiya, diagnostika, laboratoriya kabi xizmatlarda xususiy sektor ulushi ancha yuqori.

Shunga qaramay, bu borada hali imkoniyat ham, talab ham ko‘p. Taqdimotda tibbiyot, ta’lim, madaniyat va sport yo‘nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi.

Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki hamda boshqa hamkorlar bilan birgalikda sog‘liqni saqlash sohasida jami qiymati 1,2 milliard dollarlik 5 ta, maktabgacha va maktab ta’limi sohasida 745 million dollarlik 6 ta hamda oliy ta’lim sohasida

100 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish choralari belgilab olindi.

Xususan, Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Andijon va Samarqand shaharlarida ko‘p tarmoqli zamonaviy klinikalar quriladi. Hududlardagi markaziy shifoxonalarda tibbiyot bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmatlar xususiy sektorga o‘tkaziladi.

Madaniyat va sport sohalaridagi ayrim faoliyatlarga xususiy sektorni jalb qilish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Hozirgi kunga qadar 43 ta madaniyat markazi xususiy sektorga berilgan bo‘lib, yana qo‘shimcha 127 tasini berish imkoniyati aniqlangan.

Shu kabi bo‘sh turgan basseyn, sport zali va maydonlarini ham yangilab, sog‘lomlashtirish xizmatlarini kengaytirish zarurligi qayd etildi. Buning uchun madaniyat va sport inshootlarini soddalashtirish tartibda xususiy sheriklikka berish taklifi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy sohada qurilishlar hamda mahalliy hokimliklarga tegishli obyektlar kesimida “yo‘l xaritalari”ni tasdiqlab, ijrosini ta’minlash, xususiy sheriklik loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘ZA

Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — VAZIFALARNI BAJARISHGA SAMARALI SAFARBARLIK

Davlatimiz rahbari kambag‘allikni qisqartirish va aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash borasida muhim vazifalarni oldimizga qo‘yar ekan, “2025-yil — ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo‘ladi”, deya ta’kidladi.

Xalqimiz o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashashi, obod turmush kechirishi, salomatligini tiklashi, farzandlarining ta’lim-tarbiya olishi borasida qat’iy amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni ado etish har birimizdan katta mas’uliyat talab etadi.

Bu sa’y-harakatlarning samarali amalga oshishi va natijadorlikka erishishda, albatta, ijro intizomi muhim o‘rin tutadi.

Shaxsiy mas’uliyat, temir intizom, kasbiy g‘urur va professional mahorat ijro intizomining mustahkam poydevoridir.

Belgilangan vazifalarga erishishning asosiy jihatlari sohani tizimli o‘rganish va amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish natijasida ayon

bo‘ladiki, har bir rahbar va xodimning erishgan muvaffaqiyatlari asosi ijro intizomi hisoblanadi.

Barcha vazirlik va idoralarda ijro intizomini ta’minlash maqsadida “Ijro.gov.uz” idoralararo elektron tizimi joriy etilgan, ushbu tizim orqali qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tahlil qilish va hisobini yuritish imkonini mavjud. Mana shu imkoniyatlardan kelib chiqib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida ijro intizomi “markaziy apparat — tasarrufiy tashkilotlar — hududiy bo‘linmalar” shaklida texnologik zanjir asosida tashkil etilgan.

► Davomi 4-betda

MILLIIY QO‘SHIQCHILIK SAN‘ATI YO‘LIDAGI FIDOKORONA IJODNING YUKSAK E‘TIROFI

Milliy qo‘shiqchilik san‘atimizning tolmas targ‘ibotchisi, O‘zbekiston xalq artisti G‘ulomjon Yoqubov o‘zining jo‘shqin qo‘shiqlari, o‘ziga xos ijro uslubi bilan muxlislar e‘tiborini qozongan. Shu kunlarda san‘atkor qutlug‘ 75 yoshini qarshilamoqda.



Poytaxtimizdagi “Xalqlar do‘stligi” san‘at saroyida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti G‘ulomjon Yoqubov tavallud sanasi munosabati bilan katta konsert dasturi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston xalq artisti G‘ulomjon Yoqubovni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonini O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi. Unga ko‘ra, G‘ulomjon Yoqubov milliy qo‘shiqchilik san‘atimizni rivojlantirish borasidagi xizmatlari, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON XALQIGA TABRIK

Qadrlı vatandaşlar!
Avvalo, siz, azizlarni, yurtimizdagi barcha mo‘min-musulmonlar va butun xalqimizni ezigulik, xayr-u saxovat va mehr-oqibat oyi bo‘lgan Ramazoni sharifning kirib kelishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda mana shunday munavvar oyni el-yurtimiz bilan birgalikda tinch va osoyishta muhitda kutib olayotganimiz uchun Alloh taologa behisob shukronalar aytamiz.

Hozirgi vaqtda barcha soha va tarmoqlardagi islohotlarimiz muqaddas islom dinining odamiylik mohiyatiga uyg‘un bo‘lgan **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun”** degan ezgu g‘oya asosida amalga oshirilayotganini ko‘plab misollarda ko‘rish mumkin.

Jumladan, ijtimoiy himoya tizimi samarasini yuksaltirish, bemorlar, nogironligi bo‘lgan, keksa va yordamga muhtoj insonlarni, yoshlar va xotin-qizlarni, chet ellardagi fuqarolarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, farzandlarimizning ta’lim-tarbiyasiga e‘tiborni kuchaytirish, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni obod qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar tobora kengayib borayotganini ta’kidlash lozim.

Bu borada boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish, yurtimizdagi tinch va farovon hayotni, millatlar va dinlararo hamjihatlik

muhitini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash bundan buyon ham doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Pok niyatlar ijobat bo‘ladigan ushbu qutlug‘ oyda jahonning turli mintaqalaridagi urush-janjallar, nizo va adovatlar barham topib, butun dunyoda tinchlik, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlik barqaror bo‘lishini chin dildan so‘rab, duolar qilamiz.

Yer yuzidagi barcha mo‘min-musulmon birodarlarimizni, do‘st va hamkorlarimizni Ramazon oyining boshlanishi bilan samimiy qutlab, ularning mamlakatlari va xalqlariga osoyishtalik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Aziz vatandoshlar!
Ramazoni sharifni oila va yaqinlar davrasida katta xursandchilik bilan kutib olayotgan siz muhtaram yurtdoshlarimni yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Ushbu muqaddas oyda qilinadigan ibodat va duolar, ehson va amallarni Parvardigori olam o‘z dargohida qabul etsin!

Xalqimizning ezgu orzu-intilishlari ro‘yobga chiqsin!
Ramazon oyi barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SAMIMIY QUTLOVLAR


Ma’naviy poklanish va ezgu amallarga intilish, jamiyatda xayr-u-saxovat, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni qaror toptirishni o‘zida mujassam etgan, butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas bo‘lgan Ramazon oyi kirib kelishi munosabati bilan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy mamlakatlar yetakchilari, hukumatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlaridan qutlovlar kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar o‘z qutlovlarida davlatimiz rahbari va mamlakatimizning ko‘p millatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.

Quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:

Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**
Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi **Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;**
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum;**
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon;**
Misr Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi;**
Kuvayt Davlati Valiahdi **Saboh Xolid al-Hamad as-Saboh;**
Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II;**
O‘mon Sultoni **Haysam bin Toriq Ol Said;**
Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti **Abdulmajid Tebbun;**
Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas;**
Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha.**

Qutlovlar kelishda davom etmoqda.



RAMAZON — SAXOVAT, BIRDAMLIK VA BAG‘RIKENGLIK OYI

Alloh taolaga beadam hamd-u sanolar, suyuqli Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafoga salavat-u salomlar bo‘lsin!
Avvalo, xalqimizni O‘zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar Kengashi va o‘z nomidan Ramazon oyi bilan samimiy muborakkob etaman. Haq taolo ushbu fazilatli, fayzli damlarni dunyo mo‘min-musulmonlari uchun tinchlik-osoyishtalik, farovon hayot va ikki dunyo saodatiga eltuvchi oy qilsin.

Bu borada kechagina muhtaram Prezidentimizning **“Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”**gi qarori e‘lon qilingani nur ustiga nur bo‘ldi, deiyish mumkin. Unda xalqimiz uchun ezigulik, mehr-oqibat va shukronalik timsoli bo‘lgan qutlug‘ oyni bir qator tegishli tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda milliy an‘ana va qadriyatlariga

mos tarzda o‘tkazishga doir chora-tadbirlar belgilangani yurtdoshlarimizni juda mamnun etdi.

Darhaqiqat, ushbu qutlug‘ oyda yaxshilik, xayr-u saxovat eshiklari yanada keng ochiladi. Allohning afv va mag‘firat xazinasidan har bir kishi o‘z nasibasini olishga intiladi.

► Davomi 2-betda



2025-yil 1-mart, 43-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz



Muborak oy shukhi

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON



RAMAZON — SAXOVAT, BIRDAMLIK VA BAG‘RIKENGLIK OYI

Yaratganga shukrki, yangi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori diniy-ma’rifiy jabhada ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, emin-erkin ibodat qilish uchun keng imkoniyatlar berilayotgani, masjid-madrasalar obod qilinayotgani, haj-umra qiluvchilar soni oshayotgani mo‘min-musulmonlarni birday quvontirmoqda.



Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Boshlanishi 1-betda

“Ramazon — saxovat, birdamlik va bag‘rikenglik oyi” shiori ostida o‘tishi tavsiya etilgan mazkur oyda ehtiyojmandlar, ilm-ma’rifat yo‘lida izlanayotgan yoshlarni har

jihtadan qo‘llab-quvvatlash, oila rishtalarini mustahkamlash kabi xayrli ishlar qayd etilgan. Shuningdek, mahallalarda o‘zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish, hurmat va mehr-oqibat qadriyatlarini tarannum etish, atrof-muhitni asrab-avaylash, muqaddas



qadamjo, ziyoratgoh va qabristonlarni obodonlashtirish, ko‘chat ekishdek dinimiz ham, an‘analimiz ham yoqlaydigan go‘zal ishlarga da‘vat etilgan.

Iftorlik singari tadbirlarda me‘yorga amal qilish, isrofga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e‘tibor berish belgilandi. Bu esa fazilatli o‘yning shukuhli o‘tishida katta omil bo‘ladi, insha Alloh.

Yaratganga shukrki, yangi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori diniy-ma’rifiy jabhada ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, emin-erkin ibodat qilish uchun keng imkoniyatlar berilayotgani, masjid-madrasalar obod qilinayotgani, haj-umra qiluvchilar soni oshayotgani mo‘min-musulmonlarni birday quvontirmoqda.

Eslab o‘tish o‘rinliki, o‘tgan yili yurtimizda o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarda qatnashgan xorijlik muftiylar, taniqli ulamolar va olim-professorlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni yuqori baholadi. Yaqin kelajakda zaminimizdan

yana Buxoriylar, Termiziylar, Farobiylar, Beruniylar chiqishiga ishonch bildirildi.

Ayni maqsadlarni ko‘zda tutgan holda poytaxtimizda bunyod etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi yurtimizdagi bir necha ming yillik o‘tmish va ulug‘vor maqsadlarimizni bir joyga jamlagan muhtasham majmua bo‘ladi. Ushbu maskan bilan tanishgan odam Islom, avvalo, tinchlik, taraqqiyot va bag‘rikenglik dini ekanini, o‘zbek xalqining dunyo tamadduniga qo‘shgan buyuk hissasini yaqqol anglaydi. Shuningdek, Samarqand viloyatida bunyod etilayotgan Imom Buxoriy majmuasi allomalarimizga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtiromning oliy namunasidir.

Bularning barchasi mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, e‘tiqod erkinligini ta‘minlash, milliy qadriyatlarini e‘zozlash, xalqimizni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash yo‘lida olib borilayotgan sa‘y-harakatlarning yorqin ifodasidir. Har yili Yurtboshimiz Ramazon o‘yining kirib kelishiga, hayitlarga alohida e‘tibor qaratishi ham hamiyurtlarimizning bu oyni yanada ko‘tarinki kayfiyatda, chin ixlos va o‘zgacha tayyorgarlik ila kutib olishiga sabab bo‘lib kelmog‘da.

Mohi Ramazonda ado etiladigan solih amallar evaziga mo‘min-musulmonlar ko‘pdan ko‘p ajr-savoblarga ega bo‘ladi. Chunki tabarruk oyda Alloh taoloning rahmatu mag‘firati har qachongidan-da ko‘proq yog‘iladi.

Ramazon — xayr-u saxovat oyidir. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: **“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odamlarning eng saxiyrrog‘i edilar. Ayniqsa, Ramazon oyida yanada saxiy bo‘lib ketar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yaxshilikda**

shiddat bilan esayotgan shamoldan-da uchqurroq edilar” (Muttafaqun alayh).

Shunday ekan, qo‘li ochiq insonlarimiz nogironlar, yolg‘iz keksalar, boquvchisini yo‘qotgan fuqarolar hamda kam ta‘minlangan oilalarga mehr-muruvvat ulashishi, bemorlar holidan xabar olib, ko‘ngillarini ko‘tarishi eng savobli amal ekanini eslatib o‘tish o‘rinlidir.

Ta‘kidlash kerakki, yurtimizda muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan ijtimoiy himoya sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, kam ta‘minlangan oilalar, nogironligi bor shaxslar, yetim bolalarga manzilli yordamlar ko‘rsatish, ularni o‘qitish, kasb-hunar o‘rgatish, ishga joylashtirish borasida ham xayrli ishlar qilinmoqda.

Ana shunday savobli ishlarga hamohang ravishda hojilar ishtirokida o‘tkazilgan qariyb yetmish mingta targ‘ibot tadbirida 430 mingdan ziyod ehtiyojmand kishilarga moddiy-ma‘naviy ko‘mak berildi. Bunday xayrli ishlar qutlug‘ oyda yanada qizg‘in davom etadi. Chunki biz, ulamolar **bu yil Ramazon oyini mehr-muruvvat, xayr-saxovat mavsumiga aylantirishni** o‘zimizga shior qilib oldik! Toki qutlug‘ oyda har bir xonadon, har bir kishining qalbiga xursandchilik kirib borsin.

Ramazon — Qur‘on oyidir. Alloh taoloning kalomi aynan shu oyda nozil bo‘lgan. Haq taolo Baqara surasining 185-oyatida bunday deydi: **“Ramazon oyi — odamlar uchun hidoyat manbai va to‘g‘ri yo‘l hamda ajrim etuvchi hujjatlardan iborat Qur‘on nozil qilingan oydir”**.

An‘anaga ko‘ra, bu yil ham mamlakatimizdagi jome masjidlarda tarovih namozlari boshlandi. Ularda 27 kun davomida xatmi Qur‘on ado etiladi. Alloh nasib etsa, barcha masjidlarda Ramazon o‘yining yigirma yettinchi kechasi, ya‘ni Qadr kechasida xatmi

Qur‘onlar yakunlanib, bir vaqtning o‘zida bir necha million xalqimiz Haq taolaga duo qiladi. Mana shunday jamuljam iltijolar ijobatidan, yurtimiz yanada ravnaq topadi, hayotimiz farovon bo‘ladi. O‘lkamizga ilohiy nur, baraka yog‘iladi, insha Alloh.

Ramazon — duo oyidir. Bu haqda Qur‘oni karim va hadisi shariflarda bir qancha oyatu hadislar kelgan. Alloh taolo bunday marhamat qiladi:

“Qachon bandalarim sendan Men haqinda so‘rsalar, bas, albatta, Men yaqindirman. Duo qiluvchi Menga duo qilganda, duosini ijobat qilurman. Bas, Menga ijobat qilsinlar va Menga imyon keltirsinlar. Shoyadki, to‘g‘ri yo‘lni topsalar” (“Baqara” surasi, 186-oyat).

Abu Said roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, Ramazonning har kecha-kunduzida do‘xardan ozod qilingan (bando)lar bo‘lur. Uldardan har biri uchun qabul bo‘ladigan bir duo bor”, dedilar”** (Imom Ahmad rivoyati).

Mana shunday lahzalarda Haq taolodan mo‘min-musulmonlarimiz tutadigan ro‘zalari qabul, ibodatlari maqbul va duolari mustajob bo‘lishini so‘raymiz. Alloh taboraka va taolo ezgu maqsadlarimiz, yaxshi niyat va ulkan rejalalarimizni ro‘yobga chiqarsin!

Muhtaram Prezidentimiz sog‘-salomat, Vatanimiz yanada obod, xalqimiz hayoti bundan-da farovon, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlik, hamijhatlik muhiti barqaror bo‘lsin!

MILLIY QO‘SHIQCHILIK SAN‘ATI YO‘LIDAGI FIDOKORONA IJODNING YUKSAK E‘TIROFI



Boshlanishi 1-betda

Mazkur mukofotni san‘atkorga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

G‘ulomjon Yoqubov 60 yildan buyon san‘at yo‘lida xizmat qilib kelmoqda. U 45 yildan ortiq O‘zbekiston filarmoniyasida mehnat qilib, xalqimiz uchun manzur bo‘ladigan qo‘shiqlar yaratdi. Uning qo‘shiqlari mamlakatimiz hududidan olislarda ham bugun jarang sochmoqda.

Musiqa oqshomida so‘zga chiqqan O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Munojot Yo‘lchiyeva, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov G‘.Yoqubovning o‘ziga xos ijod yo‘li haqida atroflicha fikr bildirilar.

G‘ulomjon qaysi davraga kirsas, o‘sha davraga, albatta, fayz kiradi, — dedi O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov. — Uning odobi, muomala madaniyati, sahna madaniyati,

tomoshabinlarga hurmati yoshlarga namunadir. Prezidentimizning san‘at rivojiga ko‘rsatayotgan cheksiz e‘tibori G‘ulomjon Yoqubov mehnatlarining shunday yuksak e‘tirofida ham namoyon bo‘ldi.

Ustoz san‘atkor milliy mumtoz va estrada yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni ham maromiga yetkazib ijro etadi. U 1985-yilda “Melodiya” ijodiy firmasining “Oltin disk” mukofoti bilan taqdirlangan. Istiqloq yillarida mohir san‘atkor “Do‘stlik”, “El-yurt hurmati” ordenlari bilan taqdirlangan.

San‘at yo‘lidagi mehnatlarim shunday e‘zozlanganidan juda mamnunman, — dedi G‘ulomjon Yoqubov. — Xalqimizga betakror qo‘shiqlar taqdim etish yo‘lida bundan buyon ham o‘z kuch-g‘ayratimni ayamayman.

Tantanalni musiqiy kechada Vatanni, mehr, sadoqat va go‘zallikni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar yangradi.

Nazokat USMONOVA, O‘ZA muxbiri

Nigoh

Egningdagi palto og‘irlik qila boshlaydi. Boshingga telpak kiyib olganingdan afsuslanasan. Tarnov suvidan kaftlaringni to‘ldirib, to‘yib-to‘yib ichging keladi. Beshinchi qavatdan tushgan sumalak oyog‘ing ostida chil-chil bo‘ladi. Sirpanib ketmaslik uchun ehtiyojkorona qadam bosib, kelgan yo‘lingdan qaytishda ko‘lmakchalarni bir-bir hatlab bemalol odimlaysan. Qishki kiyimlar do‘koni peshtoqidagi “50 foiz chegirma” yozuvini ko‘rib beixtiyor ichkariga kirasan.

Do‘konni uch marta aylanib, narx-navoni ham so‘ramay qaytib chiqasan. Kelganingda ajablanib qaragan sotuvchi erib bitayotgan qorni eslatuvchi horg‘in nigohlari bilan kuzatib qo‘yadi. Uning nigohi qancha horg‘in bo‘lmasin, ko‘zlari tub-tubida hayotga tashnalik, bahor sog‘inchini payqab olish mumkin. Ammo u o‘jar boladay buni tan olgisi kelmaydi. Ha, inson qanday o‘yda yurmasin, nimalarni orzu qilmasin, bahor yo‘l topib uning qalbiga kirib boradi. Shu bois, odamlar yangilanishni bahorga mengzaydi.

Quyoshning ona zaminga ko‘proq issiqlik berishi tuproq isishiga sabab bo‘ladi. Avval maysalar, keyin buta hamda daraxtlar ildizi bu iliqlikni his etadi va beixtiyor o‘zgara boradi. Tuproq ostidagi hayot nafasi daraxtning eng tepa novdalarida kurtak urishiga sabab bo‘ladi. Mitti maysalar nozik jussasi bilan zilday tuproqni yorib chiqadi. Ha, bahor yangi kuch-quvvat va u orqali erishiladigan yangi hayot, degani.

Jamiyat ham shunga o‘xshaydi. Ya‘ni, avvalo, quyosh taftiday imkoniyatlar eshigi ochiladi. Tabiatda bo‘lgani kabi jamiyatda ham jonlanish, o‘shiga intilish seziladi. Bora-bora o‘zgarishlar odatiy turmush tarziga aylanadi. Bu xuddi qishki kiyimlarni uyga tashlagach, bir-ikki kun yengil libosga moslasha olmay, ust-boshingga qarayverishday gap. So‘ng qachondir qalin libosdagi suratini ko‘rib, o‘sha kunlarni yashab o‘tganingni eslaysan. Xuddi bahorning ilk chechagidan hayratlangan kabi nim tabassum qilasan.

Jamiyatdagi o‘zgarish bahorning ilk chechaklaridir. Vaqt o‘tishi bilan odamlar uni ko‘p yodga olavermaydi. Ayni dam daraxtlar o‘sha chechaklar sabab hosil berganini yaxshi anglaysan. Yoki uyingga kelgan mehmon bexosdan bahorning ilk kunlaridagi xotiralarni uyg‘otib yuboradi.

“Agar adashmayotgan bo‘lsam, 2016-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 42 foiz bo‘lgan, savdo ko‘rsatkichi ham past edi. Bugun kambag‘allik darajasi 8 foizga tushdi, investitsiyalar hajmi esa 30 milliardga yetdi. Shuning o‘zi katta mo‘jiza emasmi?!” — deydi Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif. — **Bu rostdan ham mo‘jiza. Chunki bunday natijalarga balandparvoz gaplar orqali**

erishilmaydi yoki yaxshi bir kengashni tashkil etish bilan hal bo‘lib qolmaydi. Mo‘jizalar aniq qarashlar, yuqori dinamika, tinimsiz mehnat va yakdil maqsad sari dadil intilish orqali paydo bo‘ladi”.

Ha, o‘zgarishlar dinamikasiga tabiatda ham, jamiyatda ham doim bir-biriga o‘xshaydi! Masalan, bahorda o‘simliklar biologik tuzilishiga qarab asta-sekin gullaydi. Jamiyatdagi o‘zgarishlarning ham barchasini birdan bajarib bo‘lmaydi. Sohalar, tarmoqlar kesimi, sharoitidan kelib chiqib ish tutiladi. Deylik, dastlab soliqlar adolati qilinadi, moliyaviy munosabatlarda ochiqlik va tenglik muhiti yaratiladi. Shu tariqa tadbirkorlik osonlashadi. Ish o‘rinlari ko‘payadi, odamlarning og‘iri yengil bo‘ladi. Kambag‘allik degan darddan shu zayil uzoqlashib borilaveradi. Faqat bu ishlar samara berishi uchun jamiyat ham tabiat kabi bir butunlikka erishishi kerak bo‘ladi.

Eskilarda gap bor, bahorning avvali seryog‘in kelsa, yilda baraka bo‘ladi. Ayni dam yangi qadalgan urug‘lar bexato unishi uchun vaqt-vaqt bilan quyosh ham chiqib turishi kerak. Soddaroq ifoda etsak, haqiqiy bahor namlik va issiq havo qorishmasidan iborat bo‘lishi zarur. Xuddi xalq va hukumatning uyg‘unligi kabi! Jamiyatning tabiat kabi yakdilligi degani shu...



Darvoqe, o‘zgarishlar haqida. Bahor darakchilaridan biri bo‘lgan bodom guli kuzga borib hosil beradi. Undan so‘ng gullagan o‘riklar ko‘klamning adog‘idan to yozning yarmidan o‘tguncha mevasi bilan siylaydi. Islohotlar bir vaqtda boshlanib, natijasi turfa vaqtlarda ko‘rinishiga misolda bu ham. Yangi O‘zbekistonning sportchilarini qarang, birdan xalqaro maydonda bo‘y ko‘rsata boshladi. Hatto og‘riqli nuqtamiz bo‘lgan futbolda ham yaxshi natijalarga erishdik. O‘zbek o‘g‘lonlari dunyoning yetakchi jimaolarida to‘p surmoqda. Yoki ta‘limdagi o‘zgarishlarni oling. Bugun mamlakatimiz yoshlari xalqaro maydonda tengdoshlari bilan bemalol raqobatlasha olyapti. Hatto eng nufuzli ta‘lim dargohlarining grantlarini yutib olgani-chi! Bu o‘zgarishlar bahor faslining ilk nishonasi, uning barakali kelayotganidan darak. Eh-he, hali oldinda gulga kirganu,

hosili kutilayotgan yana qanchadan-qancha sohalar bor, sanayversak, sanoq yetmas...

Xalqimiz bahorni ilik uzildi deb ham ataydi. Bu tabiiy, chunki o‘shish va o‘zgarish odatdagidan ko‘ra, ko‘proq quvvat talab etadi. Katta quvvat bo‘lmasa, mitti maysa ham ildiz ota olmaydi. Tuproqni yorib chiqqan taqdirda ham uzoq yashashi gumon. Shu bois, bahorda sumalak, halim kabi quvvatga boy taomlar pishiriladi. Vaholanki, sumalakni yil davomida tayyorlash mumkin, ammo u bahordagi kabi totli bo‘lmaydi. Nega? Chunki undagi quvvatga o‘sha vaqtdagina ehtiyoj seziladi.

Jamiyatdagi dastlabki o‘zgarishlar davrida bajarilgan ayrim ishlar, berilgan imtiyozlarning vaqt o‘tib o‘zgarishi shunga o‘xshaydi. Yangi O‘zbekistondagi yangilarnishlar ham shu yo‘sin, ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda. Uni ko‘rib, ilg‘ab olish esa ana shu jamiyatda qanchalik faol, ijtimoiy hayotdan nechog‘liq xabardorligimiz va albatta, daxldorlik hissimizga bog‘liq. Zero, har kuni tabiat bag‘rida yurgan odam bahorni tez, boychechak nish urgandayoq ilg‘aydi. Faqat jamiyatdagi bahorning tabiatdagi fasl o‘zgarishidan bitta farqi bor. Jamiyatda to‘rt fasl barobar kechadi. Qaysidir sohalar qish — kuch yig‘ish faslida, boshqa biri xirmon ko‘tarish — kuzda, yana boshqalari navbatdagi boqishga o‘tish — bahor faslida yashayotgan bo‘ladi. Muhimi shu, doim BAHORni yo‘qotib qo‘ymaslikdirl!

Bugun yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans degan ulkan xirmonni mo‘ljal olib yo‘lga tushgan. Undagi o‘shish va o‘zgarishlarni, ilk yutuqlarni kuzata turib ko‘ngli tongday yorishadi — BAHOR barakali keldi!

Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munajat MO‘MINOVA, yozib oldi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — VAZIFALARNI BAJARISHGA SAMARALI SAFARBARLIK



Botir ZOHIDOV,
O'zbekiston Respublikasi
kambag'allikni qisqartirish va
bandlik vaziri

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvi samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, qog'ozsiz ish yuritishga o'tish jarayonini jadallashtirish maqsadida "edo.ijro.uz" elektron hujjat aylanish tizimi ishga tushirilgan.

Bu esa, o'z navbatida, elektron hujjatlar almashinuvini tezlashtirish, topshiriqlar ijro holatini real vaqt rejimida kuzatish va ijro muddatini buzgan mas'ullarga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rish imkonini beradi.

2024-yilda "edo.ijro.uz" elektron hujjat aylanish tizimi orqali jami 44,3 mingta topshiriq ro'yxatga olindi.



Xususan, Prezidentimizning farmon, qaror va majlis bayonlarida 1 843 ta, Prezident Administrasiyasi hujjatlarida 371 ta, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida 994 ta, hukumat komissiyasi topshiriqlarida 175 ta, Bosh vazir rahbarligidagi yig'ilish bayonlari va topshiriq (rezolyutsiya)larida 1277 ta, shuningdek, vazirlik va idoralardan kelib tushgan hujjatlardagi 41 ming 612 ta vazifa ijroga qaratilgan.

Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun "Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimida nazoratga olingan har bir topshiriqqa kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimida "yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, topshiriqlar ijrosi kunbay nazorat qilib borilmoqda.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida "Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan har hafta dushanba kuni rahbar huzurida, har haftaning juma kuni esa rahbar o'rinbosari huzurida tanqidiy muhokama o'tkazish hamda Nazorat va ijro intizomi bo'limi ijro uchun topshiriq birlashtirilgan xodimlar bilan individual tarzda ishlash va ularga ko'maklashish tartibi yo'lga qo'yilgan.

Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun "Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimida nazoratga olingan har bir topshiriqqa kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimida "yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, topshiriqlar ijrosi kunbay nazorat qilib borilmoqda.

Bu amaliy chora-tadbirlar o'z samarasini bermokda. 2024-yilda "Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimida nazoratga olingan jami 1843 ta topshiriqdan 1732 tasi yoki 94 foizining ijrosini muddatidan oldin ta'minlashga erishildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yilning I choragida "Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimida 522 ta topshiriq (yanvar — 202 ta, fevral — 205 ta, mart — 115 ta) ijrosi belgilangan muddatlarda sifatli ta'minlanishi kunbay nazoratga olingan.

Ustuvor vazifalarning o'z vaqtida, samarali va to'liq hajmda amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ijro intizomini yanada mustahkamlash, ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va mutaxassislarning ish yuritish malakasi va kasbiy darajasini oshirish maqsadida 2025-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy o'qishlarni tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Shunga muvofiq, joriy yil 24-yanvar kuni vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarining rahbar va mutaxassislari ishtirokida iqtisodiy o'qish o'tkazildi.

Bu kabi o'qishlar har oyda belgilangan jadvalga asosan, muntazam o'tkazib boriladi. Mazkur seminarlarda Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligi mas'ul xodimlari ham ishtirok etib kelmokda.

Ijro intizomi masalasi vazirlikning kengaytirilgan majlislarida muntazam muhokama qilinib, boshqaruv tizimining eng quyi bo'g'inigacha rahbar va mas'ul xodimlarning shaxsiy javobgarligiga e'tibor qaratiladi. Ijro intizomiga to'g'ri yondashuvni amalga oshirish uchun vazifa birlashtirilgan mas'ul xodim, avvalo, topshiriqlarni to'g'ri tushunishi zarur, bu esa o'z-o'zidan belgilangan vazifani to'liq bajarishga tayyor bo'lishini ta'minlaydi.



Har bir topshiriq zamirida insonlar hayoti va taqdiri, orzu-maqсадlari, farzandlarimiz kelajagi, vatan ravnaqiga daxldor vazifalar mavjud. Buni bugun bajarmasak, o'ylagan hamda kutgan natijalarimizga erisha olmaymiz.

2024-yilda 5 million kishining bandligiga ko'maklashish dasturi ishlab chiqilib, yil mobaynida 5 million 265 ming aholi daromadli ish bilan ta'minlandi. 326 mingta mikroloyiha ishga tushirilishi hisobiga 578 mingdan ortiq yangi ish o'rni ochildi.

Yerni ehtiyojmand oilalarga ijaraga berish, ularning dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishini qo'llab-quvvatlash orqali ham kutilgan natijalarga erishildi. Ijaraga berilgan 61,4 ming gektar ekin maydonidan foydalanib, 158 ming 400 aholi daromad manbaiga ega bo'ldi.

Aholining qulay va mo'may daromad topishida oilaviy tadbirkorlikning o'rni

juda muhim ekani, kichik biznesni rivojlantirishda uning ahamiyati kattaligini yaxshi anglaymiz. Ana shundan kelib chiqib, o'tgan yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 372 mingta loyiha imtiyozli kredit bilan qo'llab-quvvatlandi.

Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida o'quv kurslarida 54 mingdan ziyod tadbirkor o'qitildi. Maxsus o'quvlarini tamomlagan tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kuchaytirilsa, albatta, yanada yuqori natijalarga erishiladi. Mana shularni inobatga olib, kompleks dastur doirasida kursda qo'shimcha ta'lim olgan tadbirkorlarning 90 foiziga kredit ajratildi.

Shu bilan birga, 67 ming 700 nafar ishsiz, ayniqsa, kambag'al oila a'zolarining tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandlik faoliyatini rag'batlantirishga subsidiyalari ajratildi.

Mamlakatimiz yoshlar mamlakati, deya e'tirof etiladi. Bu bejiz emas, har yili yurtimiz ta'lim muassasalarini g'ayrat-shijoatga to'la bir necha yuz ming o'g'il-qiz tamomlaydi. Ularning bandligini ta'minlash esa oldimizdagi dolzarb vazifalarimizdan biri sanaladi.

2024-yilda o'quv muassasalarini 754 ming yigit-qiz tamomlagan. Ularning 417 ming nafarini ish bilan band qilishga ko'maklashildi.

O'tgan yil davomida 234 ming 300 nafar ishsiz yurtdoshimiz kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qishga jalb etildi.

Har qanday sohada yaxshi daromadga ega bo'lish uchun, avvalo, kasbni yaxshi o'zlashtirish, yo'nalishda ta'lim va malakani egallash muhim. Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kasb-hunar o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. O'tgan yilda 118 ming 800 talabgor kasbga o'qitish kurslarida zarur bilim va malakaga ega bo'ldi.

Prezidentimiz boshchiligidagi kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylandi, ushbu sohada erishilgan ijobiy natijalar va to'plangan milliy tajribalarni ro'yobga chiqarish uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi qabul qilindi.

Mamlakatimiz bo'yicha eng og'ir ahvoldagi 1024 ta mahalla respublika darajasidagi rahbarlarga birlashtirilib, ularning infratuzilmasini yaxshilash dasturi ishlab chiqildi. Ushbu toifadagi mahallalarda tomorqani sug'orish tarmog'ini yaxshilash bo'yicha joylarga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazildi.

Respublikamizda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanganligi kambag'allik darajasini 2023-yildagi 11 foizdan 2024-yilda 8,9 foizga qisqartirishga imkon yaratdi.

2025-yilda 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarish orqali kambag'allik darajasini 6 foizgacha tushirish rejalashtirildi.

Yurtimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi islohotlarni amalga oshirishda ijro intizomi asosiy harakatlantiruvchi omil ekanini doim anglab, kuch-g'ayratimizni o'zimizga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishga safarbar etishimiz lozim.

Tahlil va taqqos

Banklarga ishonch masalasi ular paydo bo'lgandan buyon dolzarb. Bugungi dunyo o'zining keskin silkinishlari, axborot xurujlari, zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atda hayotimizga kirib kelayotgani bilan ajralib turibdi. Geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar jahon bank-moliya sektoriga ham ta'sirini o'tkazaypti va tizim oldiga ulkan vazifalar qo'ymoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, xizmatlar bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish vazifasi qo'yilgan. Aynan shu vazifani hal etishdagi muhim huquqiy hujjatlardan biri sifatida 2025-yil 18-fevralda qabul qilingan "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonunni keltirish mumkin. Chunki ushbu qonunda qator ijobiy o'zgarishlar nazarda tutilgan. Jumladan, davlat jismoniy va yuridik shaxslar depozitining 200 million so'mgacha qismini kafolatlaydi — jismoniy va yuridik shaxslarning omonati davlat tomonidan himoyalanaadi. Ilgari faqat fuqarolarga tatbiq etilgan kafolat endi biznes uchun ham amal qiladi. Omonatni qaytarish muddati 83 kundan 7 kungacha kamaytiriladi: 2026-yil 1-yanvardan 15 kun, 2027-yil 1-yanvardan esa 7 kun bo'ladi. Omonatlarni kafolatlash agentligi tashkil etildi. Bank tizimidagi barqarorlikni ta'minlash uchun yangi institut ish boshlaydi. Bu esa banklarga ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Xalqaro miqyosda omonatlarni kafolatlash tizimi boshqa mamlakatlarda

turlicha amalga oshirib kelinmoqda. Quyida ba'zi davlatlarda omonatlarni kafolatlash tizimi tomonidan kafolatlanadigan mablag'lar miqdorining taqqoslama ko'rsatkichini keltiramiz:

Misol uchun, bu miqdor AQSHda — 250 ming dollar, Germaniyada — 100 ming yevro, Yaponiyada — 10 million iyena (taxminan 70 ming AQSH dollari), Kanadada — 100 ming Kanada dollari (taxminan 75 ming AQSH dollari), Rossiyada — 14 ming 300 dollar (186 million so'm), Ukrainada — 20 ming dollar (260 million so'm), Moldovada — 10 ming 700 dollar (139 million so'm), Belarusda — 10 ming dollar (130 million so'm), Serbiyada — 16 ming dollar (208 million so'm), Chexiyada — 13 ming dollar (169 million so'm), Litvada — 15 ming dollar (195 million so'm), Estoniyada — 18 ming dollar (234 million so'm), Bolgariyada — 17 ming dollar (221 million so'm) va Ruminiyada — 15 ming 500 dollar (202 million so'm).

Ushbu ma'lumotlardan O'zbekistonda belgilangan kafolat miqdori mintaqadagi asosiy mamlakatlarda joriy etilgan me'yorlarga mos kelishi va iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilgani ko'rinib turibdi.

Mazkur qonunda ko'zda tutilgan yangi tartiblarning mamlakatimiz bank tizimiga nisbatan ba'zi ijobiy jihatlarga e'tibor

Har qanday mamlakatda bank tizimiga ishonch, avvalo, davlatga ishonchni ta'minlaydi. Banklardagi omonatni himoya qilish kafolatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ishonchini yanada oshirish, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, banklararo raqobatni kuchaytirish va turli moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim mexanizmdir.

qaratish lozim. Avvalo, bank tizimiga ishonch mustahkamlanishi omonatlarning bank sektorida uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi. Omonatlarni qaytarish muddati qisqartirilishi mijozlar uchun pul mablag'iga talabni tezkor qondirish imkoniyatini paydo qilish barobarida banklar bilan uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, oldingi tartibda ko'zda tutilmagan yuridik shaxslar va tadbirkorlar uchun kafolat mexanizmlari joriy etilishi tufayli mamlakatda biznes muhiti yaxshilanadi va kredit resurslaridan foydalanish natijadorligiga xizmat qiladi. Omonatlarni kafolatlash agentligi tashkil etilgani ushbu yo'nalishda tizimli nazorat va xavflarni boshqarish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, bank tizimidagi moliyaviy

barqarorlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan mazkur qonun jismoniy va yuridik shaxslarning omonatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, depozitlarni kafolatlash tizimi mavjudligi bank sektori barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSHda 1933-yili Federal depozitlarni sug'urta qilish korporatsiyasi tashkil etilgach, banklardan omonatlarni yoppasiga olib chiqib ketish muammosi sezilarli darajada kamaygan.

Germaniya tajribasiga ko'ra, omonatlarni kafolatlash tizimining muvaffaqiyatli faoliyati bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi




tomonidan joriy etilgan so'nggi qoidalarga muvofiq, 100 ming yevro miqdorida kafolatlash tizimi joriy etilgan bo'lib, bu turli moliyaviy inqirozlar davrida omonatchilarning bank tizimiga ishonchini saqlab qolishda juda muhim.

Har qanday mamlakatda bank tizimiga ishonch, avvalo, davlatga ishonchni ta'minlaydi. Banklardagi omonatni himoya qilish kafolatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tizimga ishonchini yanada oshirish, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, banklararo raqobatni kuchaytirish va turli moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim mexanizmdir.

O'zbekiston uchun omonatlarni samarali himoya qilishni kafolatlash tizimi joriy etilgani bu boradagi yana bir muhim qadam bo'ldi. Huquqiy tomondan mustahkam kafolatlangan omonat tizimi orqali aholi

va biznes subyektlari o'z mablag'ining banklarda xavfsiz saqlanishiga ishonch hosil qiladi. Bu esa banklarga uzoq va barqaror muddatli depozitlarni jalb qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, depozitlarning yuqori darajada himoyalangani banklardan mablag'larning ommaviy olib chiqib ketilishi xavfini kamaytiradi. Shuningdek, bankingn likvidililgini saqlash va moliyaviy inqirozlardan himoyalalanish mexanizmlarini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Buning natijasida bank sektoridagi barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlik ortadi. Bularning barchasi O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Isroil JO'RAYEV,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yangicha yondashuvlar

O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy mahsulot yaratish va autorsoring xizmatlari ko‘rsatishga keng jalb qilish orqali ularni ish bilan ta‘minlash muhim vazifa.



Mehnat bozori uchun yangi yo‘nalishni shu platforma orqali o‘rganish, yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lish mumkin. Pirovardida tinglovchi mazkur kursni tamomlagani to‘g‘risidagi sertifikatga ega bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda jahondagi yetakchi Coursera platformasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu platformada xorijiy tilni bilish talab etiladi. Ayni paytda o‘zbek tilini platformadagi ustuvor tillar qatoriga qo‘shish ustida ishlanyapti. Platformada yangi bilimlarni o‘rganish va imtihon topshirib, xalqaro sertifikatga ega bo‘lish mumkin. Bu dunyo mehnat bozoriga yo‘llanma deganidir.

Bugun AKT imkoniyatlaridan foydalanib daromad topayotgan yoshlar soni kundan kunga oshib boryapti. Shulardan biri Toshkent axborot



YOSHLAR MEHNAT BOZORIDA O‘Z O‘RNINI TOPISHIGA maktab ham mas’ul

Yoshlar — kelajagimiz poydevorini barpo etuvchi qimmatbaho boylik. Ularni qo‘llab-quvvatlashga oid sa‘y-harakatlar zamirida shu haqiqat yotibdi. **Dunyo hamjamiyati O‘zbekistonda yosh avlodga qaratilayotgan e‘tibor, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni e‘tirof etmoqda. Bunday e‘tiborning navbatdagi yorqin namunasiga Prezidentimizning yaqinda yoshlar bilan muloqotida yana bir bor amin bo‘ldim.**



Ilhomjon JO‘RAYEV,
Farg‘ona tumanidagi
55-maktab direktori

Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ziyod yigit-qiz kirib kelmoqda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 millionga yetishi kutilyapti. Bu juda salmoqli raqam. Xo‘sh, yoshlarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga qanday qilib yordam berish mumkin? Shubhasiz, bu borada maktablarning o‘rni katta.

Bola hayotning oq-qorasini endi taniy boshlagan pallada maktabga qadam qo‘yadi. U yerda ta‘lim oladi, yon-atrofdagilar bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Orzu-maqсадlarga erishish uchun harakat qiladi. Qisqasi, maktab inson uchun haqiqiy kamolot dargohi.

Maktabda a‘lo baholarga o‘qigan, o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘ygan, ilm yo‘lini tanlagan har bir o‘g‘il-qiz keyingi ma‘rifat dargohi oliyog‘ bo‘lishini istaydi. Ilgari bunday imkoniyat barcha yoshga ham nasib etavermasdi. Sababi, oliy ta‘limda bitta o‘rin uchun o‘nlab abituriyent kurash olib borishga

majbur edi. Bugun esa oliyog‘hlar soni 3 barobar oshgani natijasida oliy ta‘limga yoshlarning 42 foizi qamrab olinmoqda. Ayniqsa, o‘quv shartnoma summasi davlat tomonidan to‘lab berilayotgani hisobiga OTMlarda o‘qiyotgan ayol-qizlar soni 11 karra ko‘paydi.

Yoshlar, jumladan, bitiruvchi yigit-qizlarga imkoniyatlar toбора ko‘payayotgani ularning o‘ziga ishonchini mustahkamlash bilan birga, ta‘lim sohasi xodimlari uchun ham o‘zgacha quvonch bag‘ishlaydi. Sababi, biror ustoz yo‘qki, shogirdlarining kamolotini istamasa.

Bugun imkoniyatlarning salmog‘i ancha katta. Yoshlar o‘z oldiga qanday ergu maqsad qo‘ymas, barchasiga erishishi uchun qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunga misol, bugun dunyodagi nufuzli universitetlarda 1500 dan ziyod o‘zbekistonlik yigit-qiz tahsil olmoqda. Birgina “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi 7 yilda 2300 vatandoshimiz xorijga o‘qishga ketdi. Mazkur ko‘rsatkich avvalgi 25 yilda 800 nafar edi.

Bitiruvchilar orasida tadbirkorlikni tanlagan yoshlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu o‘z-o‘zidan ayni masalaga ham befarq qaramaslik kerakligini anglatadi. Davlatimiz rahbari joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqotida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim hujjat imzolanganini ma‘lum qildi. Bu qarorlardan birinchisiga ko‘ra, Yoshlar agentligi huzurida jamg‘arma tuzilib, unga 100 million dollar mablag‘ ajratiladi. Endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi. Startap loyihalariga 2 milliard so‘mgacha investitsiya kiritiladi.

Mamlakatimizda yoshlar uchun sifati ta‘lim va tadbirkorlik muhitini yaratish borasidagi ishlar natijadorligi va uzoq muddatga mo‘ljallangani bilan diqqatga sazovor.



“Bir million dasturchi” loyihasi ana shu ezgu maqsadga qaratilgan. Mashg‘ulotlarda eng kerakli 4 ta yo‘nalish — ma‘lumotlarni tahlil qilish, android ilovalar, veb-ilovalar va dasturiy ta‘minot ishlab chiqish bo‘yicha o‘zbek tilida subitir vositasida bepul videokurslar taqdim etiladi.

Loyihadan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonda yoshlarni axborot texnologiyalari sohasiga jalb etishdir. U uezbecoders.uz maxsus portali orqali aholining keng qatlamini axborot texnologiyalari mutaxassislari bo‘yicha masofaviy o‘qitishni nazarda tutadi.

Birinchii bosqich doirasida bepul onlayn o‘quv kurslari tashkil etilgan. 2023-2025-yillarda “Bir million dasturchi” loyihasining navbatdagi bosqichi sifatida xorijning nufuzli ta‘lim platformalarida mazkur yo‘nalishdagi onlayn o‘quv kurslarda tahsil olish imkoniyatini yaratish maqsad qilingan.

Vazirlik tomonidan yoshlarga uezbecoders.uz platformasi orqali AQSHning Coursera platformasining onlayn ta‘lim kurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Coursera masofaviy ta‘lim platformasi bo‘lib, unda 300 ga yaqin yetakchi universitet (Stenford, Yel, Illinois, Dyuk, Michigan va boshqalar)

hamda kompaniyalarining 5 yo‘nalishdagi 12 mingta professional ta‘lim resursi joylashtirilgan.

Courseraning o‘zbekistonlik 1,5 million foydalanuvchisi bor. Bundan 1 million 60 mingdan ziyodi uezbecoders.uz platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tgan. 2023-2024-yillarda Coursera platformasining boshlang‘ich darajali kurslarida 450 mingdan ziyod, professional kurslarida 3000 ta xalqaro sertifikat qo‘lga kiritilgan.

Ushbu global onlayn ta‘lim platformasining Markaziy Osiyo mintaqasi koordinatori Eduard Kanning ma‘lumotiga ko‘ra, o‘zbekistonlik 1,5 million foydalanuvchining 90 foizi o‘quvchilardir. Coursera platformasida foydalanuvchilar soni bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinda turadi. Bu esa yurtimiz ishchi kuchini mehnat bozorida talab yuqori ko‘nikmalar bilan ta‘minlashga eng ko‘p samoya kiritayotgan mamlakat ekanidan dalolat beradi.

Platformada o‘zbek foydalanuvchilar eng ko‘p qiziqish bildirayotgan yo‘nalishlar esa dasturlash, Data Science kompyuter savodxonligi, grafika va dizayn hamda xorijiy tillardir.

“Bir million dasturchi” loyihasi 2025-2026-yillarda xalqaro axborot texnologiyalari sertifikati olganlar sonini

1,5 millionga, professional xalqaro axborot texnologiyalari sertifikati olganlar sonini esa 30 mingga yetkazish belgilangan. Qolaversa, loyiha doirasida yuqori natija ko‘rsatgan eng yaxshi 2 maktabga Prezident sovg‘asi — elektromobil berilishi ham rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, loyiha doirasida 14 ta hududda eng yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilarga 1000 ta noutbuk va qimmatbaho sovg‘alar, eng ilg‘or 10 o‘qituvchining chet elga sayohati, loyiha doirasida eng yuqori natija ko‘rsatgan 100 nafar o‘qituvchiga 10 million so‘mdan pul mukofoti, yetakchi 3 ta oliy ta‘lim muassasasiga pul mukofoti beriladi.

Hozirda yuqori malakali dasturchi va mutaxassislarga ehtiyoj katta. Bugungi kun va kelajagimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sohaning yetuk kadrlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, bu kabi e‘tibor minglab dasturchi yoshlar shakllanishiga zamin hozirlaydi.

— XXI asr juda katta imkoniyatlar asri, — deydi Raqamli ta‘limni rivojlantirish markazi bosh mutaxassisi Ilhom Jo‘rayev. — O‘tgan asrda faqat o‘qish yoki yozishni bilgan odam savodli hisoblangan bo‘lsa, bugun raqamli texnologiyalarni puxta egallagan odam mehnat bozorida o‘rinni mustahkamlashi imkoniyatiga ega bo‘ladi. “Bir million dasturchi”ning asosiy maqsadi shu — xalqaro mehnat bozoriga aholining keng qatlamini tayyorlash, ilg‘or platformalarni xarid qilib, imtiyozli ravishda o‘qitish, yoshlarga bepul, imtiyozli kurslar berish. Shu orqali ularni nafaqat mahalliy, balki jahon bozoriga tayyorlash ko‘zda tutilgan. Loyihaning birinchi bosqichida nomzodlar Udemiy platformasi orqali o‘qitiladi. Bu platforma oliy ta‘lim muassasalari tomonidan boshqariladigan boshqa onlayn ta‘lim platformalaridan farqli o‘laroq, kontent yaratuvchilariga o‘z kursini nazorat qilish va onlayn o‘qitish imkonini beradi.

texnologiyalari universiteti magistranti Asadbek QarshiyeV.


— Hozir universitetda sun‘iy intellekt bo‘yicha tahsil o‘lyapman. Shu bilan birga, Biznesni rivojlantirish bankida dasturchi bo‘lib ishlayapman. “Bir million dasturchi” loyihasida o‘rganganlarim faoliyatim davomida tashkilotlarning ichki tizimini dasturlashda qo‘l kelmoqda. Qolaversa, shu orqali mo‘may daromad ham topyapman, — deydi u.

Dasturiy mahsulot va raqamli xizmatlarni taqdim etish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularni ichki hamda tashqi bozorga olib chiqish, innovatsion ishlamlarni rag‘batlantirish samara beryapti. Bugun “Bir million dasturchi” loyihasida bepul tahsil olib, ishini yo‘lga qo‘ygan, shu orqali daromad topayotgan yoshlardan yana biri Mirzo Ulug‘bek Bafoyev. U nutqida muammosi bor odamlar uchun imoishora tili tarjimasini ustida ishlayapti. Izlanishi dasturlash bilan bog‘liq. O‘quv markazida yoshlarga axborot texnologiyalari yo‘nalishida ta‘lim ham bermoqda. Umuman, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.


“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash vazifasi belgilangan.

“Bir million dasturchi” loyihasining navbatdagi bosqichida xorijning nufuzli ta‘lim platformalarida onlayn o‘quv kurslarida tahsil olish imkoniyatini yaratish, loyiha doirasida 15 ming yoshning onlayn o‘quv kurslarida ta‘lim olishini ta‘minlash, eng yaxshi natija ko‘rsatganlar va ishtirokchilarni munosib rag‘batlantirish ko‘zda tutilmoqda.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Turizm

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni, iqtisodiy raqobatga qaramay, turizm industriyasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Bunda barcha davlat o‘zi uchun qulay sayyohlik yo‘nalishini, ya‘ni bozorda mavqegini egallash, xizmatlar ko‘rsatishning har tomonlama qulay yo‘nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turizm rivojlangan davlatlar uning serdaromad ekanini anglab yetayotganida. **Ya‘ni sayyohlik orqali topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib boradi. Tarmoqda ochilgan bitta ish o‘rni boshqa sohalarda qo‘shimcha ikki kishining bandligini ta‘minlaydi.**



BUYUK IPAK YO‘LI DURDONASI

O‘ZBEKISTONDA SAYYOHLIK XIZMATLARI EKSPORTI 3,5 MILLIARD DOLLARDAN OSHDI, LEKIN BU NEGA IMKONIYATLARIMIZGA MOS EMAS?



Alisher ESHTAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

O‘zbekistonda ham sayyohlik sohasida juda katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu xususida shu yil 7-fevral kuni Prezidentimiz raisligida hududlarda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda batafsil so‘z yuritildi. Ta‘kidlanishicha, sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan yangi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, yangi sayyohlik mahsulotlari, yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishga oid sa‘y-harakatlar ancha faollashdi. Natijada o‘tgan yili turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard dollarni tashkil etdi. Lekin bu imkoniyatlarimizga mos emasligi alohida qayd etildi. Masalan, Malayziya va Indoneziyada naqshbandiya tariqatining 7 millionga yaqin izdoshi bor. Ular umruga borishdan oldin ziyoratgohlarimizga kelishni istaydi. Bu sayyohlarni Kuala

Lumpur yoki Jakartadan Samarqand va Buxoroga kamida 2 kunga olib kelib, keyin o‘zimizning samolyotda umruga yuborish uchun barcha sharoit mavjud. Shu bois, mutasaddilarga Malayziya va Indoneziya ziyoratchilari uchun “Umra plyus” turpaketini joriy etish topshirildi.

Shahrisabzda Oqsaroy, Xivada Ichon qal’a, Buxoroda Labi hovuz, Toshkentda “Yangi O‘zbekiston” maydonlari bo‘lsa-da, ularda konsert, ko‘rgazma, forumlar o‘tkazish bo‘yicha aniq rejalar qilinmagan. O‘zimizdagi 6 ta turistik markazda xalqaro darajadagi san’atkorlarning konserti tashkil qilinsa, mehmonxona, restoran, kafe, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari sayyohlar bilan yanada to‘ladi.

Yig‘ilishda Turizm qo‘mitasiga sayyohlar uchun mehmonxona, dam olish maskanlarini band qilish, avia va temir yo‘l, muzey, teatrga chiya sotib olish, gid va tarjimonlar yollash kabi xizmatlarni masofadan turib olish imkonini beradigan yagona platformani ishga tushirish vazifasi topshirildi.

Sayyohlarning fikr-mulohazalarini inobatga olib, turizm va servis joylarini

kechqurun ham ishlaydigan qilish kerakligi ta‘kidlandi. So‘nggi uch yilda 27 turdagi davlat xizmati xususiy sektorga berildi. Lekin vazirliklarda bu yo‘nalishda hali qilinadigan ishlar juda ko‘pligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu borada tarixiy ahamiyatga ega hujjatlardan biri bo‘lgan edi. Ushbu farmon asosida iqtisodiyotda birinchi marotaba turizmga strategik sektor maqomi berilgandi. Natijada O‘zbekistonda xorijiy hamda mahalliy sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi yondosh soha va tarmoqlarning rivojlanishini ta‘minlashda yangi bosqich boshlandi.

Tarmoqni yetakchi kuchga aylantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash, bandlikni ta‘minlash, aholining turmush darajasi hamda sifati oshirishga e‘tibor qaratildi. Pirovardida yurtimizda 2017-2024-yillarda bu borada juda ko‘p yangiliklar kuzatildi. Qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan,

10 ta bob, 45 ta moddadan iborat “Turizm to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Xorijiy davlatlardan keluvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Ayni paytda 93 ta davlat fuqarosi uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish tartibi belgilandi. 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatda O‘zbekistonga keluvchi xitoylik, AQSHlik va vyetnamlik fuqarolar uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi. Shuningdek, “Vatandosh”, “Student visa”, “Academic visa”, “Medical visa” va “Pilgrim visa” kabi yangi kirish vizasi turlari belgilandi.

Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo‘lak tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ilgari keluvchilar aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketgan bo‘lsa, hozir bu jarayon 15-20 daqiqada amalga oshirildi. Xorijiy sayyohlarni E-mehmon tizimi orqali elektron ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi joriy etildi, erkin harakatlanish uchun sharoit yaratildi.

Yurtimizga keluvchi sayyohlar soni 2017-yilda 2,7 millionni, 2024-yilda 10 mil-

liondan ziyodini tashkil etgani, ularning o‘rtacha qolish muddati 7-8 kunni tashkil etib, o‘tgan davr (2-3 kun)ga nisbatan 3 barobar ortgani shunday sa‘y-harakatlar samarasidir.

2017-yilda har bir chet ellik turist mamlakatimiz hududida sayohat xarajatidan tashqari o‘rtacha 197 dollar sarflagan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 430 dollarga yetgan. Ayni paytda yurtimizda faoliyat yuritayotgan mehmonxona brendlari orasida “Hilton”, “Radisson”, “Marriott”, “Intercontinental”, “Holiday Inn”, “Crowne Plaza”, “Wyndham”, “Ramada Encore by Wyndham”, “Mersure”, “Lotte city hotel” kabi xalqaro doirada mashhur brendlar mavjud.

Bir qator xorijiy davlatlar aholisi uchun mamlakat bo‘ylab sayohatlarini tashkil etishga yo‘natirilgan 40 dan ortiq transchegaraviy turistik marshrut ishlab chiqildi hamda O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari orqali ushbu mamlakatlarga taqdim etildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining VIII sammitida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Tabarruk ziyorat” konsepsiyasini

amalga oshirish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlar bajarilmoqda. Tabarruk ziyorat yo‘nalishida “Media info tur” to‘g‘risidagi targ‘ibot materiallari qator xorijiy hamda mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoritildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o‘zaro bog‘liq holda targ‘ib qilish bo‘yicha tashabbusga asosan, UNESCOning “Xiva deklaratsiyasi” qabul qilindi. Islom hamkorlik tashkilotining 2023-yildagi XI sessiyasida Xiva 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e‘lon qilindi va 31-may – 2-iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ga a‘zo davlatlari turizm vazirlari XII yig‘ilishi o‘tkazildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining turizm vazirlari yig‘ilishida Qo‘qon shahri “Ilk turizm poytaxti” degan sharafli nom bilan ulug‘landi. Shahrisabz shahri 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan turizm poytaxti, deya e‘tirof etildi. Bu Shahrisabz shahrini xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish va sayyohlarni jalb qilishga imkon yaratadi.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 mamlakat ichida 4-o‘rinda e‘tirof etildi. Shuningdek, ushbu xalqaro tashkilot O‘zbekistonni turizm xizmatlaridan tushgan tushumlar (eksport) bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinci eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatdi.

2023-yil 16-20-oktabr kunlari Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi Samarqand shahrida yuqori darajada o‘tkazildi. Uning ijroiya kengashi yig‘ilishi hamda yalpi majlisiga O‘zbekistonni “Ipak yo‘lida turizm” markaziga aylantirish maqsadida Samarqand shahrida UNWTO Tematik ofisini (diplomatik mavqega ega) ochish bo‘yicha Bosh assambleya rezolyutsiyalari hamda Samarqand shahriga Jahon madaniy turizm poytaxti maqomini beruvchi deklaratsiya qabul qilindi.

O‘zbekiston jahon turizm bozorida eng jozibador mamlakatga aylanmoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e‘tibor qaratilayotgani samarasi bo‘lsa, ikkinchidan, azaldan dunyo tamadduni xazinasi bo‘lgan tarixiy obidalariga boyligi, xalqimizning bag‘rikeng va mehmondo‘stligi tufaylidir. Albatta, bizda turizm sohasida imkoniyatlardan to‘liq foydalanilsa, dunyoning jonajon diyorimizga intilishi oshishiga, barpo etilayotgan yangi O‘zbekistonning istiqbolli nuraifshon bo‘lishiga olib keladi.

“Baxtim shu — o‘zbekning Zulfiyasiman”

O‘zbekistonga bahor xalqimizning sevimli shoirasi Zulfiya tavalludi sanasi bilan bir vaqtda kirib keladi. “Har bahorda shu bo‘lar takror, Har bahor ham shunday o‘tadi”. O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 110 yil muqaddam bahorning ilk kuni Toshkentdagi O‘qchi mahallasida tavallud topgan.

“Baxtim shu — o‘zbekning Zulfiyasiman” deya millatimizni avj pardalarda tarannum etgan shoiraning nazmga, so‘zga, adabiyotga muhabbati bolaligida oilasidagi muhit sabab paydo bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. Bunda, ayniqsa, onasi Xadichabegimning o‘rni katta.

“Onamning qanchadan-qancha qo‘shiq va afsonalarni bilishiga aqlimiz bovar qilmadi. Bu sehirli afsona va dostonlar bizga bениhoya huzur bag‘ishlar, o‘ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi.

Hozirgidek charog‘on davrda yashasa, onam yo shoir, yo olim bo‘lardi. Shunga aminmanki, mo‘jizalar yaratishga qodir, jahonni ko‘zga keng ochuvchi, insonni go‘zallik sari yetaklovchi so‘zga shaydolik hissini mening qalbmida maktab ko‘rmagan ana shu onam uyg‘otgandi”, deb yozgan edi adiba tarjimai holida.

Zulfiya vafot etgan yili 25-26 yashar navqiron yigit edim. Matbuot, xususan, jurnalistika nonini totatoganimga bir necha yil bo‘lganiga qaramay, shoirani ko‘rish, bir zum bo‘lsa-da, hamsuhbat bo‘lish, o‘git va pandlaridan bahra olish nasib qilmagan. Lekin u bilan birga ishlagan, ona-bola, ustoz-shogird tutingan, shoiraning etagidan mahkam ushlagan siymolar gurug‘ini, shirin xotiralarini tinglaganman. U haqdagi bitiklarni nazardan qochirmasdan kuzatib borishga harakat qilaman.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning 1984-yili yozilgan “Shoiraning hayot qo‘shig‘i” maqolasida quyidagi jumalarga ko‘zim tushdi: “Zulfiyani shoir qilgan o‘z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Ulug‘lardan biri aytgan ekan: “Shoimi iztirob yaratadi va bu iztirob she‘riyat uchun quvonch bo‘ladi”. Bu so‘zlar bus-butun shoir Zulfiyaga taalluqlidir. Shoirani dunyoga keltirgan ulug‘ iztirob o‘z aksiyati bo‘lgan ulug‘ baxtni ham yaratdi. Bu ulug‘ baxt to‘la to‘kis xalq va she‘riyatnikidir. She‘riyat olamiga har bir ijodkor o‘z qo‘shig‘i bilan kirib keladi. Zulfiya she‘riyatga vafo qo‘shig‘i bilan kirdi. Va bu qo‘shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi... Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo‘lib yaraladilar. Bu baxt, avvalo, o‘zbekniki, O‘zbekistonniki, so‘ngra esa dunyoniki”.

O‘zbekiston Qahramoni, munaqqid Ibrohim G‘afurov esa bunday deydi: “Zulfiyaning siymosida so‘z bilan ifodalanganmagan, aytilmagan qimmatlar chaması, aytilgan va ifodilanganlaridan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



beqiyos ko‘p. Uni o‘rtagan, qiynagan, og‘ir iztiroblar iskanjasiga solgan hollar — uni erkalagan, sharaflagan, ardoqlagan, she‘riyat gultojini boshiga kiydigan hollardan ko‘proq edi.

Shodiyonada qayg‘u, qayg‘uda shodiyona omuxta edi. Va bunga o‘sha zamonada chora, davo, xalos yo‘q edi. U “birlik, birodarlik bor yerda yuksalish bor”, deb o‘tdi. Va oxirida: “Asl ustozim — hayotning o‘zi edi”, dedi va baxtiyor, beg‘ubor, injuday bolaligiga qaytdi. Yana o‘n yetti yoshdagi o‘z “hayot varaqlari”ga tugal sodiq qoldi. Qabariq yulduz bolaligining musaffo osmoniga ko‘tarildi”.

Olam tanigan qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ham Zulfiyaxonim ijodining muxlisi bo‘lganini yashirmaydi. Uning bir maqolasida quyidagilarni o‘qish mumkin: “O‘zbek shoirasi Zulfiyaning qutlug‘ qadami tufayli Sharq adabiyotiga san‘atkor ayol kirib keldi, yosh va iqtidorli shoirlar butun bir pleyadasining ovozi baralla yangray boshladi. Zulfiya faqat o‘z she‘rlarida gavdalangan

to‘la-to‘kis ayol emas, balki u mukammal shaxs hamdir. O‘z zamonida shakllanib, kamolga yetgan shaxs. Poeziya Zulfiya uchun hech qachon shunchaki mashg‘ulot bo‘lgan emas”.

Jurnalning “egasi”

Rahmatli buvim kirill, lotin, eski o‘zbek, arab yozuvlaridagi bitiklarni birdek mutolaa qilardi. Umrlining poyoni — 84 yoshigacha qo‘lidan gazeta-jurnal, kitob tushmagan. Uymizga kundalik gazetalari qatori “Sharq yulduzi”, “Mushtum”, “Saodat” jurnallarining har bir soni uzluksiz kelardi. Ularning birinchi o‘quvchisi buvim, so‘ng o‘tam, keyin biz bo‘lardik.

Yodimda: otam gazetalariga obuna bo‘lardi. Pochtachi ularni har kuni eshigimiz tirqishiga qistirib ketardi. Jurnallarni esa mahallamiz guzaridagi — buvimning

o‘tkazayotgan buvim. — Mana bu yaxshi maqolalar, she‘rlarni o‘qisang, aqling kiradi. Senga keladigan “G‘uncha”, “Gulxan”lar o‘z yo‘liga. Bu jurnal Zulfiyaxonimniki-ya! Mana, qaragin...

Buvim barmog‘i bilan ko‘rsatgan joy — jurnalning oxirgi sahifasi past burchagida “Redaktor Zulfiya Isroilova” degan yozuvga ko‘zim tushdi.

— Buvı, “redaktor” nima degani? — Redaktor shu jurnalning “egasi-da”.

Shundan keyin “Boshqa nashrlarning “egasi” kim ekan?” deb qiziqadigan bo‘ldim. Yoshim ulg‘aygani, oradan 4-5 yil o‘tib, o‘zim ham nimalardir qoralaydigan bo‘lganim sayin gazeta va jurnallarning nufuzida ularning “egasi” katta ahamiyat kasb etishi, xalq, o‘quvchi, mushdariy mehriiga musharraf bo‘lishida muharrir mahorati va jasorati yetakchi o‘rinda ekanini anglay boshladim.

Shu ma’noda, o‘sha bolalik chog‘imda ko‘z ochgan tafakkur bilan “Saodat”ning uzoq yillardan beri nafaqat xotin-qizlar, balki xalqimiz uchun sevimli bo‘lib kelayotgani zamirida Zulfiyaxonim shaxsi mujassam, degim keladi.

“Ko‘zlarimda yonar jonli o‘t”

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida mo‘jizaviy nazm bo‘stoni barpo etilgan. Bu — muhtasham Adiblar xiyoboni majmuasi. Maskanga keluvchi ilm ahli, ijodkorlar, yoshlar, keksalar, boshqa kasb egalari tevarakka o‘zgacha ruh baxsh etib turgan ulug‘ ustozlarimizning tafakkur dunyosiga, ma’naviy merosi va hayotiga yangicha qiziqish, mehru muhabbat bilan murojaat qiladi. Ularning hayoti va ijodi mavzusi xiyobonda o‘tkazilayotgan mushoira kechalari, ma’naviyat soatlari, mahorat darslari, davra suhbatlari, musiqa qoshomlarida baralla yangraydi.

Bu yerga haykali qo‘yilgan ulug‘ adiblar qatorida Zulfiyaxonim ham bor. Adiba she‘rlarini xalqimiz, o‘zbek ayollari bag‘riga bosib, sevib o‘qiydi. Zulfiyaxonimga o‘xshashni istaydi, unga havas qiladi. Yorug‘, dardli satrlaridan o‘z dardlariga malham oladi. Shoirani shunday — so‘z tufayli millionlab insonlar qalbida muhabbat uyg‘ota olgan.

So‘z buyuk ne‘mat ekanini shoirani ijodi orqali, shogirdlari va muxlislariga,

kelajak yosh avlodlarga otashin muhabbat va hijron azobini kuylashda charxlangan o‘tkir qalami bilan isbotladi. 1944-yili xalqimizning otashin shoiri, vatan va muhabbat kuychisi Hamid Olimjondek umr yo‘ldoshidan ayrildi. Zulfiyaning turmush o‘rtog‘i xotirasiga bag‘ishlab bitgan “Hayot jilosi”, “O‘rik gullaganda”, “Xayollar”, “Sog‘inish” va boshqa to‘plamlaridan joy olgan she‘rlari tuyg‘ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug‘orilgan she‘rlar turkumiga kiradi.

Deydilarki, seni ko‘rganda Ko‘zlarimda yonar jonli o‘t, O‘sha o‘tning yolqinlarida Sendan o‘zga bor narsa unut. Mudom dilga sodiq ko‘zlarim Haqiqatni ko‘mishi qiyin. Ko‘zlarimda, qonimda kezzgan O‘sha sevinch, o‘sha olov sen.

“Hayot varaqlari” nomli ilk kitobi bilan Hamid Olimjondek shoirning nazariga tushgan Zulfiyaxonim o‘z dardlarini o‘zi yelkalagan holda o‘zgalar baxtidan baxtli bo‘lib yashadi.

2017-yil noyabrda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Jizzax shahrida ijodkor fuftlik hayoti, ijodi, faoliyati va sadoqati timsoi sifatida atqli va iste’dodli shoirlar — Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotira muzeyi ochildi. Shuningdek, viloyatda ular nomidagi



ijod maktabi tashkil etildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan 2022-yilda Hamid Olimjon va Zulfiya hayotiga bag‘ishlab “Muhabbat bahori” badiiy filmi suratga olindi.

Orzular ijobati

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohada imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy hayotda faollik ko‘rsatayotgan xotin-qizlarni munosib rag‘batlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayollarga turli sohalarida imtiyoz va imkoniyatlar yaratish uchun ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotda faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan. Imkoniyatlar rag‘batga aylanib, barcha sohada xotin-qizlar ulushi, faolligi ortib bormoqda.

Jumladan, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta‘sis etilib, har yili 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida iqtidorli qizlarga taqdim etilishi mana shu e’tibordan darak. Bu mukofot adabiyot, madaniyat, san’at, fan, ta’lim sohalaridagi

alohida yutuqlari uchun beriladi. Mukofot sohibalari bo‘lgan maktab, litsey, kollej o‘quvchilari tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilinadi.

2017-yilgacha ushbu mukofot bilan har bir hududdan 1 nafardan jami 14 nafar 14 yoshga to‘lgan va 22 yoshdan oshmagan iqtidorli xotin-qiz taqdirlangan bo‘lsa, 2018-yildan iqtidorli qizlar safini kengaytirish, faolligini oshirish maqsadida har bir hududdan 2 nafardan jami 28 iqtidorli xotin-qiz taqdirlanmoqda va yosh chegarasi 22 yoshdan 30 yoshgacha uzaytirilgan.

2024-yilda mazkur mukofot bilan taqdirlash jarayoni yanada takomillashdi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-fevraldagi tegishli farmoni bilan xotin-qizlar o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari sohasi, jumladan, IT xizmatlari ko‘rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishdagi ulushini oshirish, axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni munosib taqdirlab borish maqsadida axborot texnologiyalari yo‘nalishi 8-yo‘nalish etib kiritildi. Demak, 2025-yilda ilk bora axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha Zulfiya nomidagi davlat mukofoti munosiblariga taqdim etiladi.

Ta’ sis etilgandan buyon shu kunga qadar mukofot bilan ijtimoiy faolligi va iste’dodi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan 452 iqtidorli xotin-qiz taqdirlangan. Ta’ sis etilganiga chorak asr bo‘lgan mazkur mukofot sohibalarining bugungi kundagi faoliyati, yutuqlari ham salmoqli.

Birgina sport yo‘nalishida mazkur mukofot sohibi bo‘lgan Diyora Keldiyorova “Parij-2024” XXXIII yozgi Olimpiadasida oltin medalni, Svetlana Osipova kumush medalni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Shuningdek, yana ko‘plab xotin-qizlarimiz Osiyo, jahon va boshqa nufuzli xalqaro musobaqa va tanlovlar g‘oliblari.

Bugun sovrindorlarning 20 nafardan ortig‘i turli vazirlik, idora va tashkilotlarda turli rahbarlik lavozimlarida ishlaydi. Mukofotga sazovor bo‘lganlar orasida mahalliy kengashlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari borligi ham ahamiyatli, albatta.

Xalqimizning ardoqli shoirasi nomidagi davlat mukofoti iqtidorli qizlarimiz uchun betakror rag‘bat, katta imkoniyat bo‘lib qolaveradi. Zulfiyaxonim shoir, adiba, muharrir bo‘lish qatorida ulkan jamoat va siyosat arbobi ham edi. Xalq ishonch bildirib, deputat etib saylagan, hukumat esa respublika xotin-qizlar qo‘mitasining jamoatchilik asosidagi raisi va boshqa mas’uliyatli vazifalar yuklagan edi. Shoir, jamoat arbobi sifatida mamlakatimizning turli hududida xalq bilan uchrashuvlarda, muloqotlarda qatnashdi, qator xorijiy davlatlarda xalqaro anjumanlarda ishtirok etdi.

Qismat Sharq ayolining ovozi jahan minbariga olib chiqish shara fi va zahmatini Zulfiyaxonim zimmasiga yukladi. Ayol sifatida xotin-qizlar hayotida uchrayotgan muammolar, ularni qiynayotgan masalalarga yechim topish, haq-huquqlarini ta‘minlashga erishish uchun bor imkoniyatini ishga soldi. Shoiraning zamon zayli bilan o‘sha davrda uddalanmay, amalga oshmay qolgan ulkan orzulari bugun ro‘yobga chiqayotgan bo‘lsa, ne ajab.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



tili bilan aytganda — “kiyoska”dan men olib kelardim. Oy boshida buvim otamga “O‘g‘lingni “kiyoska”ga g‘izillat, jurnallar kelgandir”, derdi. Bu — “pulini ber”, degani edi. Men keltiradigan jurnallar orasida, albatta, “Saodat” ham bo‘lardi.

10-11 yoshlarda bo‘lsam kerak, bir kuni “Saodat”ni qo‘limga olib, muqovasidagi mashhur hind aktrisasi va ichki sahifalaridagi “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali” haqidagi maqolaga ilova qilingan rangli suratlarni uzoqroq tomosha qilib qolibman (Bu yoshda qaysi bola maqola matnini o‘qiydi, faqat suratlarni tomosha qiladi-da).

— Hadeb suratlarga mahliyo bo‘lavermay, yozilganlarini ham o‘qisang-chi, bola, — dedi yonimda boshqa nashmi nazaridan

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 23:48 Topshirildi — 00:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.